

# YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA ЯИИИИ TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBA TAHLILI

Ashurov Mahammadjon Sotvoldievich professor  
Farg'ona davlat texnika universiteti

Davronjon Abdullajonov  
Qo'qon universiteti o'qituvchisi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17062382>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot konsepsiyasi asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari, yashil iqtisodiyot doirasida tadbirkorlik faoliyatining afzalliklari o'rganilgan va xorijiy tajriba tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda yashil tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit** so'zlar: barqaror rivojlanish, kichik biznes, resurs samaradorligi, xususiy tadbirkorlik, xorijiy tajriba, yashil iqtisodiyot, yashil tadbirkorlik, yashil moliyalashtirish.

Zamonaviy dunyoda iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni saqlash dolzarb vazifaga aylandi. Yashil iqtisodiyot - atrof-muhitga zararni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlash orqali barqaror rivojlanishni ta'minlovchi iqtisodiy model sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari muhim rol o'ynashi mumkin, chunki ular iqtisodiyotning eng tez moslashuvchan qismi hisoblanadi.

Yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida yashil tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari Govard Bouena, I.V. Ignatova, M.A. Astaxova, A.A. Kadsheva, A.G. SHtepa, T.A. Rjevskaya, G.S. CHEbotareva F.Berg, J.F. Koelbel, R.Rigobon S.Sala, B.Ciuffo, P.Nijkamp, K.H. Lee, B.Min, Y.Zhan, K.H. Tan, G.Ji, M.Mirimoghadam, G.R. Timilsina, L.Kurdgelashvili, M.Geissdoerfer, M.Vladimirova, N.Samodurova, F.Khamidova, D.Rakhmonov kabi mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqotlarida yoritilgan.

O'zbekistonda ham 2019-2030 yillar uchun "Yashil iqtisodiyotga o'tish" strategiyasi qabul qilingan bo'lib, uning asosiy yo'nalishlaridan biri yashil

tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Uning asosiy zaruriyati va ahamiyati shundaki, yashil tadbirkorlik atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan yoki minimal ta'sir ko'rsatadigan, shuningdek ekologik muammolarning yechimiga qaratilgan mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish orqali foyda olishga yo'naltirilgan tadbirkorlik faoliyati ekanligidadir. Yashil tadbirkorlik klassik tadbirkorlikdan farqli o'laroq, o'z faoliyatida iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy maqsadlarning uyg'unligini ta'minlashga harakat qiladi.

Shu sababli, yashil tadbirkorlik ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida yetakchi o'rinni egallaydi. Bu esa iqtisodiyotning rivojlanishini hamda jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi. Jamiyatning barqaror rivojlanishi esa nafaqat atrof-muhitni, balki odamlarni ham sog'lomlashtirishni nazarda tutadi. Dunyoda, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda ekologik tadbirkorlik sohasida boy tajriba to'planib, uning nafaqat hayotiy zaruriyati, balki iqtisodiy foydasi ham isbotlangan. Shu nuqtai nazardan, rivojlangan mamlakatlarda yashil iqtisodiyot va yashil tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish yo'nalishlari belgilab olingan bo'lib, ularda ushbu yo'nalishlarni amalga oshirish bo'yicha samarali mexanizmlar ishlab chiqilgan. Xususan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 2019 yilda qabul qilingan "Yevropa yashil kelishuvi" (European Green Deal) ishlab chiqilgan bo'lib, uning doirasida ushbu mamlakatlarda 2050 yilga kelib iqlim neytralligiga erishish va iqtisodiy o'sishni resurslardan foydalanishdan ajratish maqsad qilib qo'yilgan. Su bilan birgalikda, mamlakatlarda yashil tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab – quvvatlashda kichik va o'rta biznes subyektlari uchun "Yashil harakat rejasi" (Green Action Plan for SMEs) ishlab chiqilgan bo'lib, u quyidagi yo'nalishlarda ko'mak beradi:

- yashil innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash (innovfin, horizon europe dasturlari orqali);
- yashil ko'nikmalarni rivojlantirish (skills for green economy dasturi);
- ekologik boshqaruv tizimlarini joriy etish (emas easy mexanizmi);

- resource efficiency self-assessment tool for smes kabi raqamli vositalar orqali resurs samaradorligini oshirish.

Jumladan, Germaniya va Daniyada ham “Yevropa yashil kelishuvi” (European Green Deal) ga asosan yashil iqtisodiyot va yashil tadbirkorlikni shakllantirishga asosiy masalasi sifatida qaraydi.

Germaniyada “Energiewende” (energiya transformatsiyasi) dasturi doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilgan. Kichik biznes uchun KfW banki orqali imtiyozli kreditlar, soliq imtiyozlari va texnik yordam ko‘rsatiladi. Xukumat “Go-digital” va “Go-inno” dasturlari hamda yashil texnologiyalarni subsidiyalash, past foizli “yashil” kreditlar, soliq imtiyozlari, davlat-xususiy sheriklik loyihalari orqali yashil raqamli texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, elektromobillar, organik qishloq xo‘jaligi kabi yashil iqtisodiyot yo‘nalishlarini qo‘llab – quvvatlab boradi.

Daniyada esa “Yashil” maqsadli dasturlar, ekologik standartlar, ekopreneerlik ekotizimini rivojlantirish, ekologik innovatsiyalar uchun grantlar asosida shamol energetikasi, bioenergetika, suv texnologiyalari, ekologik boshqaruv yo‘nalishlarini rivojlantirish va qo‘llab - quvvatlashga e’tibor qaratadi.

Janubiy Koreya mamlakatida yashil tadbirkorlikni rivojlantirish xarakatlari ikki mingginchi yilning dastlabki o‘n yilligida boshlangan bo‘lib, ushbu mamlakatda bu faoliyatni rivojlantirish va qo‘llab – quvvatlash uchun “Yashil o‘sish” strategiyasi doirasida 2009-2013 yillarda YIMning 2% miqdorida mablag‘ ajratilgan. Korea Technology Finance Corporation (KOTEC) orqali yashil texnologiyalarga asoslangan startaplarga kafolatlar berib boriladi. “Green Small Business Support Program” dasturi esa kichik biznes subyektlariga ekologik sertifikatlashtirishni o‘tkazish va yashil texnologiyalarni joriy etishda yordam ko‘rsatadi.

Shu bilan birgalikda ushbu mamlakatda energiya tejamkorligi, yashil transport, suv resurslarini boshqarish, yashil texnologiyalar kabi asosiy

yoʻnalishlarni rivojlantirish uchun innovatsion subsidiyalari, klasterlarni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot loyihalarini qoʻllab-quvvatlash kabi mexanizmlardan foydalaniladi.

Yaponiya davlati ham mamlakatda yashil iqtisodiyotni vodorod energetikasi, energiya samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash, toza ishlab chiqarish yoʻnalishlarida doirasida amalga oshirilib boriladi. Bu maqsadlar uchun davlat investitsiyalari, ekoprennerlik dasturlari, yashil innovatsion iqtisodiy zonalar, yashil xaridlar siyosati mexanizmini ishlab chiqqan. SHu bilan birga “Karbonsiz jamiyat” strategiyasini ishlab chiqqan boʻlib, uning doirasida 2050 yilga kelib parnik gazlari chiqindilarini 80% ga kamaytirish maqsad qilingan. "J-Credit" tizimi orqali karbon bozorini rivojlantirish va kichik biznesning energiya samaradorligi loyihalarini ragʻbatlantirish amalga oshirish rejalashtirilgan. Shuningdek, bu mamlakatda “Environmental Business Initiative” dasturi orqali ekoinnovatsiyalar qoʻllab-quvvatlash tizimi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Xalqaro tajriba shuni koʻrsatadiki, yashil tadbirkorlikni rivojlantirish boʻyicha eng samarali yondashuv davlat, tadbirkorlar va ilmiy-tadqiqot institutlari oʻrtasidagi hamkorlikni taʼminlash orqali amalga oshiriladi. Bunda davlat ham iqtisodiy ragʻbatlantirish choralarini, ham meʼyoriy-huquqiy bazani takomillashtirish ishlarini qamrab olishi lozim.

Oʻzbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, ekologik xavfsizlikni taʼminlash va raqobatbardosh yashil biznes sektorini shakllantirish orqali iqtisodiy oʻsish, yangi ish oʻrinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishga erishish yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Jumladan, biz oʻrgangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, quyidagilarni tavsiya etamiz:

- yashil tadbirkorlikni rivojlantirish va qoʻllab – quvvatlash uchun yoʻnaltirilgan aniq mexanizmlarni ishlab chiqish, huquqiy va institutsional muhitni takomillashtirish;

- yashil loyihalarni moliyalashtirish moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish;

- texnologik qo'llab-quvvatlash va innovatsiyalarni rag'batlantirish orqali tadbirkorlar faoliyatlariga yangi yashil texnologiyalarni joriy etishni osonlashtirishga qaratilgan mexanizmlarini rivojlantirish. Ilmiy-tadqiqot institutlari va tadbirkorlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot tamoyillarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga tatbiq etish ham iqtisodiy, ham ekologik foyda keltirishi mumkin. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan samarali qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish va tadbirkorlarning yashil innovatsiyalarga yo'naltirilgan faoliyatini rag'batlantirish orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish mumkin.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi "2019 — 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori.
2. Berglund, T., & Gericke, N. (2022). Circular economy integration in business models: A review of small and medium-sized enterprise cases. *Business Strategy and the Environment*, 31(7), 3125-3147.
3. Lee, K. H., & Min, B. Zhan Y., Tan K.H., Ji G., Mirimoghadam, M., & Ghazinoory, S. Timilsina, G. R., & Kurdgelashvili, L. (2022). Renewable energy in small and medium enterprises: Economic and environmental benefits. *Renewable and Sustainable Energy Reviews*, 156, 111989.
4. Lee, K. H., & Min, B. Zhan Y., Tan K.H., Ji G., Mirimoghadam, M., & Ghazinoory, S. Timilsina, G. R., & Kurdgelashvili, L. Geissdoerfer, M., Vladimirova, D., & Evans, S. Hussain, M., & Malik, M. (2022). Sustainable entrepreneurship and SMEs in developing countries: A systematic literature review. *Journal of Environmental Management*, 305, 114366.

5. Alayón, S., Säfsen, K., & Johansson, G. (2021). Conceptual sustainable production framework for SMEs in emerging economies. *Journal of Cleaner Production*, 277, 123269.
6. Sachs, J.D. (2022). *The Age of Sustainable Development*. Columbia University Press.
7. Samodurova, N. (2023). Small Business in the Green Economy of Uzbekistan: Problems and Prospects. *Economics and Innovation Management*, 3, 45-58.
8. Khamidova, F., & Rakhmonov, D. (2022). Green Economy: Integration of Small Business and Private Entrepreneurship in Uzbekistan. *International Journal of Innovation and Economic Development*, 8(2), 7-19.
9. UNIDO (2022). *Greening industries in emerging and developing countries*. Vienna.
10. GIZ (2023). *Green Economy Transformation in Cooperation with the Private Sector*. Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit.
11. World Bank (2023). *Building Competitive Green Industries: The Climate and Clean Technology Opportunity for Developing Countries*. Washington, DC.